

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISHDA YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK INVESTITSİYALAR ROLI**

***Nasriyeva Dilafruz Muhiddinovna***

*Shofirkon agrotexnologiyalar texnikumi*

*maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada ekologik barqarorlikka erishish, yashil iqtisodiyot va ekologik investitsiyalar atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilish haqida yoritib beriladi. Yashil iqtisodiyotning mohiyati va asosiy yo'nalishlari, barqaror iqtisodiy o'sishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati, ekologik investitsiyalar va ularning samaradorligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, "yashil iqtisodiyot", eko-innovatsiya, eko-investitsiya, qayta tiklanadigan energiya, "yashil" ish o'rinlari, ekologik texnologiyalar

O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatni baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. 2025 yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nomlanishi ham bejizga emas, albatta.

Ilk bor "yashil iqtisodiyot" atamasi 1989 yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi" deb atalgan.

Atrof muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari

surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshlagan. “Yashil iqtisodiyot” tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda “yashil iqtisodiyot”-bu insonlar faravonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan

“Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim hisoblanib, uning bosh maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgandir. Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va samarali resurslardan foydalanish orqali amalga oshirishni ta'minlaydigan iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyot, ayniqsa, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tugashi va ekologik muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Uning maqsadi — barqaror rivojlanishni ta'minlash, tabiiy muhitni saqlash va iqtisodiy o'sishni davom ettirishdir.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar O'zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o'tishi uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy islohotlar yanada “yashil” bo'lib, iqtisodiyot barqaror bo'lsa, ushbu jarayon O'zbekiston uchun yanada foydaliroq kechishi mumkin. Bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish global muammolardan biri bo'lib, bunda ekologik barqarorlik muhim o'rin tutadi. Yashil iqtisodiyot va ekologik investitsiyalar atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moliyaviy vositalar va investitsiyalar tizimini anglatadi. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- **Yashil obligatsiyalar** – ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan obligatsiyalar.
- **Ekologik kreditlar** – korxonalar va tadbirkorlar uchun past foizli ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi kreditlar.
- **Barqaror sug'urta xizmatlari** – tabiiy ofatlar va ekologik muammolarga qarshi sug'urtalash tizimi.

- **Ekologik investitsiyalar** – qayta tiklanuvchi energiya, chiqindisiz ishlab chiqarish va ekologik texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichida kambag'allikni ikki baravar kamaytirish va 2030-yilga borib O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori davlatga (UMIC) aylantirishni maqsad qilib qo'yilgan. Iqtisodiy islohotlarga "yashil" maqsadlarni joriy etish orqali O'zbekiston o'tish jarayonini mustahkamlash va ushbu jarayondan olinadigan foydani oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu strategiya "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da ham e'tirof etilgan. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish mustaqil jarayon emas, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tishning ajralmas qismidir.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish va ekologik muhofazani uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi. Uning asosiy jihatlari:

1. **Atrof-muhit ifloslanishining kamayishi** – yashil texnologiyalar va ekologik loyihalar orqali karbon chiqindilari qisqaradi.

2. **Resurslardan samarali foydalanish** – qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish orqali energiya samaradorligi oshadi.

3. **Ish o'rinlarining yaratilishi** – yashil iqtisodiyot yangi sohalarni rivojlantirib, bandlik darajasini oshiradi

"Yashil" siyosat resurslarning va boylikning yanada samarali taqsimlanishiga, raqobatbardosh korxonalarga olib keladi. "Yashil" yondashuv resurslarning samarali ishlatilishiga va atrof-muhitning oqilona boshqarilishiga e'tibor beradi, bu esa samarali tabiiy resurslar bazasini saqlab qolgan holda boshqa sohalarda o'sish bo'lishi uchun ko'proq resurslarni bo'shatadi. "Yashil" siyosat yashil texnologiyalar va yechimlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yangi ish o'rinlari yaratadigan va samarasiz davlat korxonalari rivojlanishdan ushlab turgan iqtisodiyotni yanada faollashtiradigan yangi ishtirokchilar va ularning tajribasi, innovatsiyalar va kapitalni talab qiladi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish o'zgarishlarning zarar ko'rgan ishchilarga ta'sirini yumshatish hamda ularning yashil imtiyozlar va imkoniyatlardan foydalanishiga ustuvor ahamiyat berish orqali o'tishning salbiy oqibatlarini bartaraf etadi. Buning natijasida jamoatchilikning iqtisodiy islohotlarni qabul qilishi kuchayadi va o'tish

jarayoni o'z yo'lida davom etishi mumkin bo'ladi.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda jalb etish zarur bo'ladi.

Jahonda oxirgi o'n yillikda ekologik tabiiy muhit, barqaror o'sish va farovonlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik paydo bo'ldi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida eko-innovatsiya, eko-investitsiya kun tartibida birinchi o'rinda turadi. Ushbu mamlakatlarda eko-innovatsiyalarva eko-investitsiyalar barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi.

Ekoinnovatsiyalar - bu faqatgina tabiiy resurslarni va umuman atrof-muhitni saqlab qolish vositasi emas, balki resurslardan oqilona, zamonaviy, ishonchli foydalanish bilan bir vaqtda mamlakatning iqtisodiy farovonligini va umuman raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yordam beruvchi juda samarali vosita. Davlat iqtisodiyotida yashil sektor ulushini ko'paytirish uchun tezlashtirilgan amortizatsiya, mulk solig'i yoki daromad solig'ini kamaytirish kabi soliq imtiyozlarini qo'llashi mumkin, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarni ekologizatsiyalashni amalga oshirish uchun davlat moliya muassasalari tomonidan imtiyozli kreditlar va yashil texnologiyalarga investitsiyalar kiritishi mumkin. Ammo davlat ekologik muvofiqlikni ta'minlash uchun biznes subsidiyalarini taqdim etishi to'g'ri hisoblanmaydi. Uning o'rniga, davlat organlari korxonalarining moliyaviy holatini rag'batlantirishda ekologik omillarga e'tibor qaratilish mezonini o'zida aks ettiruvchi xususiy banklar va sug'urta kompaniyalarini kengaytirishi kerak. Ya'ni, banklar kreditni tasdiqlashdan oldin ekologik ko'rsatkichlar ro'yxatini talab qilishi mumkin, sug'urta kompaniyalari esa ekologik xavflar va ularni kamaytirish choralari bo'yicha identifikatsiya deklaratsiyasini tuzishlari mumkin.

Ekologik investitsiyalar iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Quyidagi jadval ekologik investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari va

ularning samaradorligini ko'rsatadi:

| <b>Yo'nalish</b>     | <b>Investitsiya turi</b>               | <b>Samaradorlik ko'rsatkichi</b>           |
|----------------------|----------------------------------------|--------------------------------------------|
| Quyosh energiyasi    | Quyosh panellari                       | Elektr energiyasi tejalishi (20-40%)       |
| Shamol energiyasi    | Shamol generatorlari                   | Karbon chiqindilarining kamayishi (30-50%) |
| Qayta ishlash tizimi | Chiqindilarni qayta ishlash            | Xomashyo sarfining kamayishi (15-30%)      |
| Ekologik transport   | Elektr va vodorod transport vositalari | Yoqilg'i sarfini kamaytirish (25-45%)      |

Yuqoridagi investitsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishga ham hissa qo'shadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi

Umuman olganda, Yangi O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylanishi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, va iqtisodiy o'sishning barqaror yo'nalishini yaratish orqali yashil iqtisodiyot mamlakatimizni kelajakda muvaffaqiyatga olib borishi mumkin

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining rasmiy hisobotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yashil moliyaga oid rasmiy hujjatlari.
4. World Bank, "Green Finance and Sustainable Development" (2022).
5. UNEP, "The Role of Green Investments in Economic Growth" (2021).
6. OECD, "Green Finance and Investment" (2023).
7. Nikolaev A., "Ekologik investitsiyalar va ularning iqtisodiyotga ta'siri" (2020).
8. Xodjayeva D., "O'zbekistonda yashil moliyaning rivojlanish istiqbollari" (2021).